

UCHINCHI RENESSANSGA TAYYORGARLIK HAMDA UNI YUZAGA CHIQARISH MASALALARI

Musurmankulov Farxod Uralovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: Uchinchi renessans, musulmon renessansi, yangi taraqqiyot, uyg'onish davri, renessans.

Annotation

O'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchin yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lif va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmish tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

KIRISH

Ko'hna moziy guvohki, dunyonи doimo g'oyalar boshqargan. G'oyalar esa mudom bilim, tafakkur va aql kuchiga suyangan. Buggingi rivojlanish shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g'oyalar uchun kurash xam birmuncha murakkabliklar hamda o'tkir fasoxatni talab qilishi tayin. Ammo insoniyat o'z tabiatiga ko'ra, baribir bir ezgu g'oyaga muxtojlik sezib yashaydi. Shu ma'noda, bugun yangi O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla – "Uchinchi Renessans" tag matnida ana shunday ulug' bir ezzulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin. Har qanday jamiyatning iqboli va istiqboli yosh avlodga bo'lган e'tiborga bog'liqligi ayon. Prezidentimiz faoliyati va qarashlarining muhim yo'nalishi ham shunga qaratilgani bejiz emas. Kelajakning bonyodkori, ertangi kunning hal qiluvchi kuchi – yoshlarga munosabat masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylangani rost.

ADABIYOTLAR SHARHI

Prezidentimizning yoshlarga ishonch bilan aytgan ushbu so'zları: "Xalq dengiz bo'lsa, yoshlar uning to'lqinidir" har doim quloqlarim ostida jaranglaydi. Demak, yoshlik – umrning avji va mavjiga qiyos.

Prezidentimiz "Yoshlar orasida "Men sizning yoningizda turib, kamarbasta bo'laman!" deb ko'zi yonib turgan, bilimli, jasoratli yigit qizlar borligiga ishonaman. Yetakchilikning, o'z ortidan ergashtirishning eng to'g'ri yo'lli shaxsiy o'rnak va namuna bo'lishdir" deb ishonch bildirganlar. Uchinchi renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejavy istiqbol dasturlarimiz, ta'lif – tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosati-barchasi unga sharoit va muxit yaratishga qaratilmog'i lozim. XV-XVII asrda yashagan Renessans – Uyg'onish davri nomi bilan yuritadilar. XIX-asrda yashagan fransuz olimi Jozef Ernest Renanning fikricha, "Absolyuut tizimlar zamoni o'tdi. Ilgari har bir olim o'z sistemasiga ega bo'lib, uning uchin yashar va kerak bo'lsa jonini berar edi. Endi biz ularning barchasini birin – ketin yoki bir varakayiga o'rgana olamiz". Biroq

ko‘pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo‘lganligiga ko‘z yumadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

XV-asrdan Renessans Yevropaga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300-350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg‘oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o‘girib, chuqr o‘zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg‘onishiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatganlardan biri Ibn Rushdir. XVI-asrning 30-40 yillarida bizda an’anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Ilmiy, badiy izlanishlarga ijtimoiy ehtiyoj pasayib ketdi. O‘tmish yutuqlari oldida qulliq qilish, ularni ideallashtirish va faqat takrorlashga urinish, yangiliklarga salbiy munosabat shakllandi. Astasekin chuqr turg‘unlik va inqiroz boshlandi. Ular noxush ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy, regional nizolar va ayirmachilik ka‘bi sabablar bilan qo‘shilib qoloq bo‘lib qolishimizga, XIX-asr ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizni yo‘qotishga olib keldi. O‘tmishdan birinchi bo‘lib teran tarixiy xulosa chiqargan-jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg‘otish, taraqqiyot tomon burishni ko‘zldi. Ammo mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo‘g‘ib qo‘ydi.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo‘ydi. Haqiqatdan tarixan olganda biz ikki renessans boshdan kechirdik: birinchisi IX-XII asrlar, ikkinchisi XIV-asr oxirgi choragi XVI-asr birinchi choragi. O‘zbekiston tarixining birinchi renessansi – Somoniylar davriga to‘g‘ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo‘ldi. Ijtimoiy soxaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyaan tartib-tamoyili asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy-madaniy rivojlanishi, ilmu ma‘rifatning markazlashuvi singari munim jarayonlar o‘rtta asrlarda yurtimizda davlatchilikning o‘ziga xosligini belgilovchi tamoillardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti deydi: "Antik davrda Yunonistonda yongan ilm ma’shalasi to‘qqizinchi-o‘n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan olgan mashhur daholarni yetishtirib berdi". Bu o‘rinda ikki masalaga e’tibor berish lozim:

1. "Antik davr Yunonistoni" deganda Suqrot, Aflatun, Arastu kabilalar nazarda tutiladi;
2. "Markaziy Osiyo hududi" deganda esa qadimgi Vatandoshlarimiz Movarounnahr va Xuroson hududi e’tiborga olinmoqda. Bu tushunchalar bo‘lajak pedagoglar tomonidan aniq idrok etib olinishi lozim.

Birinchi renessans uch omil muhim o‘rin tutadi:

1. milliy davlatning mavjudligi;
2. ilm – fan rivoji
3. ta’lim taraqqiyoti;

Ikkinchi renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat Movarounnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tarildi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me’morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallahdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san’at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi renessans davrida ikki masala idrok etilishi kerak:

1. Milliy davlatchilik. Amir Temur va Temuriylar davlati (Movarounnahr va Xuroson hududida);
2. Ilm – fan rivoji;

3. Adabiyot va sa'nat taraqqiyoti;

Ikkinci Renessansda uch omil muhim o'rinni tutadi:

1. milliy davlatning homiyligi;
2. dunyoviy ilm – fan va sa'natning rivoji;
3. ijod va kashfiyotning taraqqiy etishi;

O'zbekiston respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Xalqimiz ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekiston yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda", – degan so'zi yangradi. Prezidentimiz quyidagi vazifani qo'ydi: "Ta'lism islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik". E'tibor berilsa bu taraqqiyotning jarayoni faqat ta'lism islohotlari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur hujjatlar talabalar, professor – o'qituvchilar va amaliy faoliyatdagi pedagogik tomonidan idrok etilishi, o'zlashtirilishi hamda ularda belgilangan yangi vazifalar ijrosiga kirishishi kerak. Bu hol ikki muhim voqealik bilan belgilanadi:

1. Yangi qonun ta'lism sohasidagi munosabatlarni milliy va xalqaro standartlar asosida tartibga soladi, shu sababli u uchinchi Renessansning poydevori sifatida eng munim hujjat hisoblanadi;
2. Prezidentimiz nutqida ta'lism islohotlarining yakuniy va yangi vazifalari belgilanib, unda asosiy masala ta'lism islohotlarining samaradorligiga tezroq erishish nazarda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Renessans, ya'ni Uyg'onish davrlarini e'lon qilar ekan, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan 1900-1920 yillarda tamal toshi qo'yilgan Uchinchi Renessans davrini davom ettirish va yakunlash vazifasini qo'ydi.

Prezidentimiz idrokida Renessans masalasida uch munim masala bor:

1. Renessans merosiy vorislik;
2. Ajoddlardan ibrat olish;
3. Yangi renessans tamalini asosli qo'yish;

Uchinchi Renessans davrida quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- a) Uchinchi Renessans 1900-2020-yillar davomida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan boshlangan va mustaqil O'zbekistonda 2020-yildan boshlab barpo etiladi;
- b) Uchinchi Renessans Birinchi va Ikkinci Renessanslarning mantiqiy davomi hisoblanadi;
- c) Uchinchi Renessansda asosiy g'oyalarni Ilm, Milliy Uyg'onish va Taraqqiyot tashkil qiladi;
- d) Bu g'oyalarni zamonaviy texnologiyalarga ta'sir etishi kerak;

Bugun dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan balqiyotgan Uchinchi Renessans g'oyasining jozibasi shundaki, u o'z atrofiga davlatni ham, jamiyatni ham, butun xalqni ham birlashtira oladi. Bu g'oyaning milliy g'oya o'laroq keng quloch yozishi esa, nazarimizda, barchamizning uning mazmunini chuqurroq anglashimizga, teranroq mushohada yuritishimizga bog'liq.

Shu asnoda davlatimiz rahbarining "Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lism va makkab ta'lism tizimi hamda ilmiy-madaniy muassalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, makkab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.

Men ishonaman-hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning

beshinchı halqası, beshinchı ustuni bo‘ladilar. Va bu ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagı yeng mustahkam ustun bo‘ladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar to‘la qo‘llab-quvvatlaysizlar”, degan da‘vatni qalb amriga aylantiolsakgina ushbu g‘oyanıng cheksiz qudratini o‘z hayotimizda yorqin ko‘ra boshlaymiz.

Prezidentimizning mamlakatimiz kelajagini ta’lim va ilmu fanda ko‘rayotgani, uchinchi renessans g‘oyasi milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilgani, zamonaviy dunyoga yuzlanish hamda dunyo bilan tenglashmoq istagida ana shu Vatan va millat tuyg‘usining yana bir jilvalanishini ko‘rish mumkun.

Bu tuyg‘u xalqimizning qonida jo‘sh urib turgan ma’rifatga tashnalik va o‘sha olis o‘tmishdagi buyuk Uyg‘onish davrining sog‘inchi bilan mushtarakadir. Shunday ekan, dunyo sahniga yana yangi tamaddun bilan bo‘ylamoqqa bu xalq ming bora haqlidir. Uchinchi Renessans poydevorining mustahkam asosi bo‘lib xizmat qiluvchi buggingi buyuk g‘oyalarda ana shunday ulug‘ maqsadlar mujassamdir.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki, O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessansning poydevorini yaratishda Birinchi va Ikkinci Renessans davridagi ilmiy - ma’naviy meroslari, jadid ma’rifatparvarlarining amaliy tajribalariga tayanish orqali ta’lim islohotlariga bog‘lanishi davr talabidir. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni ham amalga oshirmog‘imiz zarur.

Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki buggingi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Buggingi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ma’naviyat yuldizlari.T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2009-y.
2. Hayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati.-T., 2014-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O‘qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan so‘zlagan nutqi. 2020-y. 30-sentabr.
4. Adam Mes. Musulmon Renessansi. Izd-vo "Nauka". Glavnaya redaksiya Vostochnoy literatury. M., 2016-y.
5. Renan "Dialogues fragments philosophiques" – "Falsafiy dialoglar va parchalar". F., 2016-y.
6. Tashpulatov B. Meditsinskoe obrazovanie v Uzbekistane. Elektronnyy setevoy Politehnickiy jurnal."Nauchnye trudy KubGTU" 3 (2020): 480-486.